"O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasining 2026 yil, 19 yanvar oyidagi tasdiqlagan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida Sebzor amaliyot BXM va Shayxontohur BXO xodimlarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirishda, 2025 yil 26 dekabr kunidagi O'zR Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga "Murojaatnomasi"da "Korrupsiya-davlat taraqqiytiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustivorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muxitini zaiflashtiradigan eng jiddiy taxdid. Korrupsiyaga yo'l qoyish esa-isloxatlarimizga xiyonatdir" deb ta'kidlaganligi va bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026 yil "Favqulotda xolat" e'lon qilinganligini inobatga olgan xolda davra suhbati bayonnomasi.

28.01.2026y. Toshkent shahar

_____№ 1

Raislik qiluvchi: "O'zmilliybank" AJ Sebzor-amaliyot BXM boshqaruvchisi O. Rashidov.

Qatnashdilar: Sebzor-amaliyot va Shayxontohur BXM/BXO xodimlari.

K U N T A R T I B I:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni anqlash va baholashning huquqiy asoslari mavzusidagi davra suhbati.

So'zga chiqdi: (O.Rashidov, I.Davurov, B.Aydaraliyev va Sh.Uzakova)

Sebzor amaliyot BXM boshqaruvchisi Rashidov Oybek davra suhbatini ochib, kun tartibidagi masala bilan ishchi xodimlarni tanishtirib o'tdi. Korrupsiya va u bilan bog'liq salbiy holatlar uzoq yillar davomida jahon hamjamiyatini qiynab kelayotgan ijtimoiy muammolar orasida yuqori o'rinda turadi. Shu bois ushbu illatning barcha ko'rinishlariga qarshi samarali kurashish choralarini ko'rish, milliy qonunchilik normalarini takomillashtirish, korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash hamda oldini olish mexanizmlarini yaratish, shuningdek, sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

So'nggi yillarda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar hamda ko'rilayotgan choralar xalqaro darajada e'tibor va muxokamalarga sabab bo'lib, yurtimizning xalqaro reytinglardagi o'rni yuqori bo'lmoqda. Xususan, Transparency International xalqaro tashkilotining 2023 yil uchun e'lon qilgan "Korrupsiyani qabul qilish indeksi"da O'zbekiston Respublikasi 2 pog'ona yuqorilab, 180 mamlakat orasida 121-o'rinni egallagan edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yaxshi natijalarga erishgan davlatlarning tajribasiga e'tibor qaratsak ularda korrupsiya bilan bog'liq, salbiy holatlarning oqibati bilan emas, balki uni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarini o'rganish orqali samarali mexanizmlarini joriy etish ustuvor maqsadga aylanganligini ko'rish mumkin. Chunki bugun xalqaro xamjamiyat korrupsiyaga qarshi kurashishning eng to'g'ri va samarali yuli - korrupsiyaning sodir etilishiga imkoniyat

yaratayotgan sabab va omillarni aniklash hamda ularni bartaraf etish, deb hisoblaydi. Mamlakatimizda ham korrupsiya va u bilan bog'liq, salbiy holatlarning oldini olish yo'nalishida ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimlarni joriy etish buyicha izchil choralar ko'rilmoqda.

Xususan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqdik oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yulga quyish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda.

Bu ishlarning davomi sifatida davlat organlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tizimini to'liq joriy etish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini qullash endilikda muhim ahamiyat kasb etadi. G'arb olimlari korrupsiyaviy xavf-xatarlar tushunchasini ta'riflashda institutsional yondashib, davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi normalarning ishlashi ustidan nazorat mexanizmlari ishlamasligi natijasida korrupsiya jinoyatining sodir etilish holatlari sifatida talqin etadi.

Bizning fikrimizcha, korrupsiyaviy xavf-xatarlar shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida, qonunga xilof ravishda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimolidir.

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va taxlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish choralarini ko'rish hamda bu boradagi ishlarni monitoring qilish maqsadida, O'zbekiston Respublika Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan Respublikamizda davlat organlari zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni vaqti-vaqti bilan majburiy baholash amaliyoti joriy etildi.

Ushbu amaliyot davlat boshqaruvini samarali amalga oshirish, davlat xizmatchilarining faoliyatida korrupsiya bilan bog'liq, salbiy holatlarni barvaqt aniklash hamda bartaraf etish, eng asosiysi fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat rahbarining PF-5729-sonli Farmoniga asosan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bevosita har bir davlat organining zimmasiga yuklatilgan bo'lib, baholash natijalari buyicha:

- korrupsiyaviy xavf-xatarga eng kup duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro'yxatini shakllantirish;
- idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini tushirish choralarini ko'rish;
- har yili O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilik va huquqni qullash amaliyotini takomillashtirish orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlarga barham berish buyicha takliflarni kiritish baholashning amalga oshirish mexanizmlari sifatida belgilangandi.

Ammo, Farmonda belgilangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyoti o'tgan vaqt davomida kutilgan natijani bermadi. Hatto, davlat boshqaruvi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni o'z vaqtida aniqlamaganliklari hamda tegishli baho bermaganliklari, shuningdek, korrupsiga oid huquqbuzarliklarni takroran sodir etish holatlariga yul quyganliklari yuzasidan shaxsan javobgar bo'lishi qayd etilgan bo'lsa ham.

Buning asosiy sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, Farmonda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyoti natijasida amalga oshiriladigan ishlarga urg'u berilib, baholash amaliyotini amalga oshirishning aniq mexanizmlari va bosqichlari ko'rsatilmagan. Bu esa, o'z navbatida, davlat organlarida o'z zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonlari to'g'risida to'liq tasavvur shakllanishiga to'siq bo'lgan;

ikkinchidan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotini samarali amalga oshirishga bevosita davlat organining o'zi mas'ul bo'lib, ushbu jarayonlarni respublika doirasida muvofiqlashtirib boruvchi yagona davlat organi mavjud emas edi. Shu bois, davlat organlarida baholash amaliyotining samaradorligiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan va bu yo'nalishdagi ishlarning hisoboti yuritilmagan;

uchinchidan, Farmonda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni vaqti-vaqti bilan baholash davlat organlari uchun majburiy belgilangan bo'lsada, uni amalga oshirishning aniq muddatlari ko'rsatilmagan. Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni sifatli baholash ishlarini yetarli darajada tashkillashtirish borasidagi choralarni o'z vaqtida ko'rmagan davlat tashkilotlari rahbarlarining javobgarligi masalasiga umuman e'tibor qaratilmagan edi.

Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi Sebzor-amaliyoti va Shayxontohur BXM/BXOlar bilan ishlash sho''basi bosh mutaxassisi Uzakova Shoxista Xorijiy davlatlarda davlat tashkilotlari tomonidan o'zining funksiyalari va ularni amalga oshirishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash tartiblari va mexanizmlari normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan hamda to'liq tartibga solingan.

Xususan, Bolgariyada davlat organlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Hukumat qarori bilan tasdiqlangan uslubiyot asosida amalga oshiriladi.

Mazkur uslubiyot korrupsiya xavfi ko'rsatkichlarining to'rt toifasini belgilaydi:

1) obyektiv (ma'muriyatda monopol mavqega ega bulish - avtonom qarorlar qabul qilish);
2) subyektiv (ma'muriyat funksional faoliyatiga doir o'rnatilgan qoidalarni bilmaslik);
3) ichki (ma'muriy imkoniyatlarning yetarli emasligi yoki samarali nazoratning yuqligi);
4) tashqi (qonun hujjatlaridagi kiritilgan o'zgartirishlar tez-tez joriy etilishi yoki o'rnatilgan qoidalarning bekor qilinish holatlarining ko'pligi).

Moldovada ham davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti Hukumat qarori bilan tasdikdangan. Ushbu uslubiyotga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ikki bosqichdan: korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va aniklangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish buyicha choralarni ko'rishdan iborat.

Vengriyada 2012 yilda Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan "Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash" dasturiga asosan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash so'rovnomalar o'tkazish, kuzatish, monitoring, treninglar va o'quv seminarlari tashkil etish kabi metodlardan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi yangi mexanizmlarni joriy etish, korrupsiyaga ko'proq moyil bo'lgan davlat organlari funksiyalarini detsen¬tralizatsiya hamda raqamlashtirish orqali isloh qilish nazarda tutilgan.

Litvada esa "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, davlat tashkilotlari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni o'zlari yoki boshqa mustaqil tashkilotni yollash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu Qonunda davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash "Ichki nazorat va ichki audit to'g'risida"gi Qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi lozimligi belgilangan.

Yuridik boshqarmasi Sebzor-amaliyot BXM bosh yuriskonsulti Aydaraliyev Baxtiyor so'zga chiqib Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qaror bilan yanada mustahkamlandi.

Mazkur qarorda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini rey¬ting baholash indikatorlari belgilangan bo'lib, besh yunalishning ikkinchi yunalishi sifatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniklash, baholash va ularni kamaytirish buyicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi ko'rsatilgan.

Ya'ni davlat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholashda davlat tashkilotining barcha funksiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash buyicha baholashdan o'tkazilganligi hamda aniklangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish buyicha ko'rilgan choralar muhim o'rin egalladi.

Shuningdek, ushbu qarorda davlat tashkilotlari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida davlat tashkilotining birlashgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya va lavozimlar ro'yxati, korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ishlab chiqishlari lozimligi belgilandi.

Bundan ko'rish mumkinki, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyoti ma'lum ma'noda takomillashtirildi, baholash natijasida davlat tashkilotlari qanday choralarni ko'rishi aniq belgilandi, eng muhimi, bu ishlarni hisobini rasmiy yuritish boshlandi.

Ammo ushbu qaror ham bu sohadagi barcha jarayonlari to'liq ochib bermadi, ya'ni korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qanday tartibda amalga oshirilishi, bosqichlari va baholash jarayonlarida ishtirok etuvchilarning vazifalari, baholash natijalarining darajalari mavhum bo'lib qoldi.

Ta'kidlangan omillar davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotining huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida yana bir normativ-huquqiy hujjat qabul qilish zaruriyatini ko'rsatdi.

Ushbu davra suhbati davomida q'shimcha qilib Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash boshqarmasi bosh mutaxassisi Davurov Ibroxim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 mayda qabul qilingan "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-sonli qarori respublikada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotida yangi sahifa ochdi.

Xususan, mazkur qaror o'ziga xos xususiyatlari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotidagi o'rnini kuyidagicha izoxlash mumkin:

birinchidan, qaror bilan qaysi davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniklash va baholash lozimligi belgilandi. Unga ko'ra, 2022 yil 1 sentabrdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyati korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashdan o'tkaziladi;

ikkinchidan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotining amalga oshirish tartiblari va bosqichlari belgilanib, ushbu amaliyot raqamlashtirildi. Qarorga muvofiq, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash "E-Anticor.uz" elektron platformasida amalga oshirilib, har bir funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "past", "o'rta" hamda "uqori" o'lchovlarida platformada baholab boriladi.

Shuningdek, har bir funksiya bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi va darajasi, ularni bartaraf etish bo'yicha choralarni o'z ichiga oluvchi korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish amaliyoti yo'lga qo'yiladi;

uchinchidan, davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotining samarali ishlari uchun uni muvofiqlashtirib boruvchi mas'ul davlat tashkiloti belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mazkur amaliyotning davlat tashkilotlari faoliyatida bir xilda ishlashi uchun mas'ul bo'lib, bu boradagi ishlarni muvofikdashtirib boradi.

Xususan, korrupsiyaviy xavf-xa¬tarlarni aniqlash va baholash natijalari bo'yicha ushbu xavf-xatarlarni bartaraf etish choralarini tizimli ravishda ko'rish maqsadida, "Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri"ni shakllantiradi va yuritadi hamda Internet tarmog'ida ochiq e'lon qilib borilishini ta'minlaydi;

turtinchidan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning aniq muddati belgilan-di. Endilikda davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni (yillik) baholash va korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarni reyestrga kiritish har yili 1 martga qadar amalga oshiriladi;

beshinchidan, davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotida bevosita fuqarolarning ishtiroki, ya'ni jamoatchilik nazorati uchun sharoit yaratildi. Baholash natijalari bo'yicha e'lon qilingan ma'lumotlar yuzasidan fuqarolarning takliflarini onlayn rejimda qabul qilish imkonini yaratgan holda ijtimoiy surovlar va mustaqil ekspertlar ishtirokida muhokamalar o'tkaziladi;

oltinchidan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini yetarli darajada tashkillashtirmagan davlat tashkilotining rahbariga nisbatan javobgarlik choralarini ko'rish masalasi kun tartibiga chiqdi. Qarorga muvofiq, davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish buyicha axborotlarini eshitish hamda natijasiga kura, kamchiliklarga yul qo'ygan mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli javobgarlik choralari ko'riladi. Chunki davlat tashkilotlarining rahbarlari o'zlariga yuklangan funksiyalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni o'z vaqtida va sifatli o'tkazish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

yettinchidan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyoti metadologik jihatdan takomillashtirildi. Ya'ni, qarorda davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni anikdash va baholashning aniq mezon va usullarini nazarda tutuvchi uslubiyotni tasdiqlash vazifasi

ko'rsatilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyoti barcha uchun yagona uslubiyot asosida amalga oshirish tartibi belgilandi.

Bundan tashqari, qarorda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, inson omilini qisqartirish va tegishli tartib-taomillar va funksiyalarni raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish orqali bartaraf etish lozimligi alohida ko'rsatildi.

Davlat rahbarining PQ-240-sonli qarori ijrosini ta'minlash va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotini samarali tashkil etish maqsadida 2022 yilning 31 avgust kuni "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash" uslubiyoti davlat ro'yxatidan o'tkazildi (ro'yxat raqami 3383).

Mazkur uslubiyot bilan korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish tartibi, muddatlari, baholashning aniq mezonlari hamda baholashda ishtirok etuvchi mas'ullarning vazifalari belgilandi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda respublikamizda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotining huquqiy asoslari bosqichma-bosqich takomillashtirilib, samarali ishlashi uchun yetarli darajada shakllantirildi.

Endilikdagi muhim vazifa - bu sohada xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va chet el ilgor tajribasini inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunini korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotini o'z ichiga olgan normalar bilan to'ldirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyotining ochiqligini ta'minlash choralarini ko'rish hisoblanadi.

QAROR QILINDI:

1. Huquqiy asoslarga qat'iy rioya etilsin: Barcha bo'lim boshliqlari korrupsiyaga qarshi ichki lokal hujjatlar va Etika qoidalari bilan xodimlarni qayta tanishtirsin.

2. Baholash o'tkazilsin: yanvar oyiga qadar tashkilotning har bir yo'nalishi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavflar qayta ko'rib chiqilsin va baholansin.

3. Nazorat kuchaytirilsin: Aniqlangan «yuqori xavf» darajasidagi jarayonlar ustidan doimiy monitoring o'rnatilsin va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmasin.

Yig'ilish raisi **O.Rashidov**

Yig'ilish kotibi **Sh.Choriyev**